

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

З.Т.Исаева	
«Системный подход к анализу парадигматики и синтагматики»	1438
Г.М.Мамаджанова	
Язык как фактор формирования культурных кодов	1442
V.A.Giyosova	
Reference units for children with glutenomies	1446
З.Ш.Нуридинова	
Функции художественного перевода в контексте межкультурной коммуникации	1449
M. T.Xalilova	
Publitsistik uslubga xos mikromatnlarning funksional-semantik belgilari	1452
Z.H.Ubaydullayeva	
Hissiyotlar ifodalanishida psixofiziologiya va etnik xoslanish	1457
A.A. Shodiyeva	
Presuppozitsiya pragmatikaning asosiy obyektlaridan biri sifatida	1462
S.M.Qurbonova	
Antroposentrik lingvistika tarmoqlari	1466
M.A.Xusanova	
Badiiy nutqda qo'llangan og'zaki nutq unsurlarining vazifalariga doir	1473



UO'K:81'1:81'23

HISSIYOTLAR IFODALANISHIDA PSIXOFIZIOLOGIYA VA ETNIK XOSLANISH**ПСИХОФИЗИОЛОГИЯ И ЭТНИЧНОСТЬ В ВЫРАЖЕНИИ ЭМОЦИЙ****PSYCHOPHYSIOLOGY AND ETHNICITY IN THE EXPRESSION OF EMOTIONS**

Ubaydullayeva Zarnigor Hasanboy qizi 
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada hissiy tajribaning fenomenologik tuzilishi haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Shuningdek, hissiyotlarning o'rganilish taraqqiyoti, bugungi kundagi tilshunoslik nuqtai nazaridan hissiyotlar psixofiziologiyasi borasidagi fikrlar keltirilgan. Nutqiy jarayonda inson nutqiga ta'sir qiluvchi omillardan biri - uning madaniy jihatdan ma'lum bir etnik guruh, madaniyatga mansubligi hamda bu naqadar uning hissiy tajribasi va ifodalanishiga ta'siri haqida qarashlar berilgan. O'zbek, rus, ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlarning o'ziga xos hissiy tili, atrofda yashovchilarga yetkazishi, ifodalashi to'g'risida ham atroflicha ma'lumotlar berilgan.

Аннотация

В данной статье представлены краткие сведения о феноменологической структуре эмоционального опыта. Также представлены развитие изучения эмоций, мысли о психофизиологии эмоций с точки зрения современного языкознания. Одним из факторов, влияющих на речь человека в речевом процессе, является его культурная принадлежность к определенному этносу, культуре и то, как это влияет на его эмоциональные переживания и проявления. Также дается подробная информация об уникальном эмоциональном языке узбекского, русского и англоязычных народов, о том, как они общаются и выражают его окружающим людям.

Abstract

This article provides brief information about the phenomenological structure of emotional experience. The development of the study of emotions, thoughts on the psychophysiology of emotions from the point of view of modern linguistics are also presented. One of the factors influencing a person's speech in the speech process is his cultural affiliation with a particular ethnic group, culture and how this affects his emotional experiences and manifestations. It also provides detailed information about the unique emotional language of the Uzbek, Russian and English-speaking peoples, how they communicate and express it to the people around them.

Kalit so'zlar: hissiy tajriba, fenomenologik tuzilish, hissiyotlar psixofiziologiyasi, etnik xoslanish, vegetativ bo'ron, madaniy sindrom, madaniyat o'lchovlari, hissiy bosim.

Ключевые слова: эмоциональный опыт, феноменологическая структура, психофизиология эмоций, этническая идентичность, вегетативная буря, культурный синдром, измерения культуры, эмоциональное давление.

Key words: emotional experience, phenomenological structure, psychophysiology of emotions, ethnic identity, vegetative storm, cultural syndrome, cultural dimensions, emotional pressure.

KIRISH

Psixologiyada hissiy tajriba sohasining fenomenologik tuzilishini o'rganishning uzoq an'anasi mavjud. Tuyg'ularni o'rganish individual tajriba va umuman inson faoliyatining keng ko'lamli muammolarini tushunish uchun juda muhimdir. Shu sababli ham, hissiyotlarning og'zaki-kontseptual majmui bo'yicha fundamental tadqiqotlar zamonaviy tilshunoslikda katta e'tiborga ega. Biroq, emotivlik muammosi (tildagi emotsionallikning namoyon bo'lishi) tilshunoslikda nisbatan uzoq vaqt davomida ko'rib chiqilganiga qaramay, til fani bu turkumning to'liq tavsifini berishga hali tayyor emas edi. Ekspressivlik (ifodalash) ta'sir toifasiga ko'ra onomasiologik emas, balki funksional toifani bildiradi. Har xil ekspressiv leksik vositalarni inventarizatsiya qilish ommaviy axborot vositalarining roli ortishi va nisbatan yangi nutq turi - reklamaning jadal rivojlanishi tufayli ayniqsa dolzarblashdi. Tilshunoslik va adabiyotshunoslikda uzoq vaqtlardan buyon ekspressivlik tadqiqot obyekti sifatida o'rganilib kelindi. Hozirgi davrga kelib tadqiqotlar mavzusi ko'lami va

yo'nalishida o'ziga xosliklarni kuzatish mumkin. Xususan, adabiyotshunoslikda tasvirni kitobxonga yanada yaqqolroq va ta'sirliroq yetkazish vositalari alohida yo'nalish sifatida o'rganilmoqda. Tilshunoslikda bo'lsa, nutqni yanada boyitadigan para lingvistik vositalar deyarli barcha tadqiqot mavzularida uchramoqda. Har bir fan sohasi o'zining yangi yo'nalish bosqichiga o'tdi. Insonlarni yaxshiroq tushunish va ularning nutqini tahlil qilish uchun har bir detal e'tiborga olinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Psixologlardan farqli o'laroq, fiziologlarning fikriga ko'ra, his-tuyg'ular, birinchi navbatda, tananing tashqi va ichki ogohlantirishlar ta'siriga bo'lgan munosabati, aniq sub'ektiv bo'yoqdorlikka ega va sezgirlikning barcha turlarini qamrab oladi [1].

Hissiy bosim holati bir qator organlar va tizimlarning funksiyalarida sezilarli o'zgarishlar bilan birga ko'rinadi, masalan, butun tanani qamrab olgan "yong'in" kabi. Bu o'zgarishlar shunchalik kuchliki, ular haqiqiy "vegetativ bo'ron" kabi ko'rinadi. Biroq, bu "bo'ron" da ma'lum bir tartib mavjud. Hissiyotlar tana va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro yaxshi ta'sirni ta'minlaydigan organlar hamda tizimlarning faolligini oshiradi. Avtonom nerv sistemasining simpatik qismining keskin qo'zg'alishiga ham sababchi bo'ladi. Adrenalinning katta miqdori qonga kiradi, yurakning ishi kuchayadi va qon bosimi ko'tariladi, bronxlar kengayadi, organizmdagi oksidlanish hamda energiya jarayonlarining intensivligi oshadi. Mushaklar faoliyatining tabiati keskin o'zgaradi. Agar normal sharoitda alohida mushak guruhlari ishda birma-bir ishtirok etsa, u holda hissiy qo'zg'alish holatida ular bir vaqtning o'zida faollashishi mumkin.

Hattoki, har qanday qizg'in faoliyat sharoitida ham, yuqori energiya sarfi bilan, odam hissiy toliqish holatida qo'llaniladigan katta energiya bir-biriga nisbatan teng holga kelib qoladi. Shu bilan birga, organizmning hozirgi vaqtda hayotiy bo'lmagan reaksiyalari va funksiyalari u darajada kerakli bo'lmaydi. Xususan, to'plash jarayonlari bilan bog'liq funksiyalar sekinlashtiriladi, bu organizmga zarur qo'shimcha energiya resurslarini beradi. Ichki kechinmalar sub'ektivdir va ular bilan tanishishning yagona yo'li bu mavzudan ular nimani boshdan kechirayotganini so'rashdir. Garchi bunday savol muayyan qiyinchiliklarga to'la bo'lishi mumkin. J.Godfrua [2] yozganidek, "...so'zlar subyekt haqiqatda nimani boshdan kechirayotganini ifodalash uchun juda zaif, yetarli emas. "Men olmani yaxshi ko'raman", "Men onamni yaxshi ko'raman", "Men bu odamni yaxshi ko'raman" yoki "Men bu shaharni yaxshi ko'raman" degan odam ham xuddi shunday his-tuyg'ularni ifodalaydi, deyish mumkinmi?" [3]. Bir qarashda, his-tuyg'ularning obyektiv namoyon bo'lishi, shunchaki tashqi ko'rinishi bo'lishi mumkin. Ammo bu ko'rsatkich ba'zida ishonchli emas. Biror kishining ko'zlarida yosh bo'lsa, ular quvonchdanmi, qayg'udanmi yoki g'azabdanmi, tushunishimiz qiyin bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, bu his-tuyg'ularning ifodasi ko'pincha odam tegishli bo'lgan madaniyat bilan bog'liq: masalan, qoshlarini chimarish yoki tabassum Sharqda va G'arbda boshqacha qabul qilinadi. Ba'zi psixofiziologlarning fikriga ko'ra, fiziologik faollashuv natijasida uning asab sistemasi, butun tanada yuzaga keladigan keskin o'zgarishlari tufayli odam his-tuyg'ularni boshdan kechirishi mumkin. Ushbu faollashuvni ob'ektiv ravishda poligraf yordamida o'lchash mumkin. Biroq, faollashuvning bir xil ko'rinishlari ham ko'pincha butunlay boshqa his-tuyg'ularning belgilari bo'lishi mumkin. Terlash yoki tez yurak urishi kabi faollashuvning turli ko'rinishlarida nozik o'zgarishlarning ma'nosini aniqlash uchun juda sezgir asboblardan kerak.

"Tuyg'ular, odatda, odam qandaydir vazifa (ehtijoj, maqsad) bilan duch kelganda paydo bo'ladi, lekin uni hal qilish, yuzaga chiqarish uchun vositalar (qoniqish, muvaffaqiyat) yetarli emas"- deb fikr bildiradi rus tilshunosi N.A.Bagdasarova o'zining "Лексическое выражение эмоций в контексте разных культур" nomli nomzodlik dissertatiasida. Bizningcha esa, inson tuyg'ulari paydo bo'lishi uchun qandaydir vaziyat shart emas, inson his-tuyg'ularsiz yashay olmaydi. Faqatgina uning yuzaga chiqarishi, ifodalanishi, qayta reaksiyada bo'lishi uchungina ma'lum vaziyat talab qilinadi. O'zingiz ham bir fikr qiling, siz hozir tinch holatdasiz, aniqki sizning o'zak qismingizni, ruhingizda halovat, hotirjamlik yoki bo'lmasa, boshqa bir tuyg'u qurshab turibdi. Hattoki, inson uxlaganda ham nimadir his qilishi (qo'rqishi, xursand bo'lishi va boshqalar) psixologlar tomonidan tasdiqlangan. Bir holatdan ikkinchi holatga o'tish uchun, hissiyotlarning tashqi muhitda nutq jarayonida ifodalanishi uchun albatta, qandaydir hissiy kuchlanish insonga ta'sir qilishi kerak. Bizningcha hissiyotlar doimo past tempda bo'lsa ham insonda mavjud bo'ladi, ifodalanish uchun esa, zaruriy muhit kerak bo'ladi. Hissiyotlar inson oldiga biror maqsad qo'ygan davrda faollashadi, yanada oydinlashadi. Maqsadga erishish vositalariga malaka, tajriba, kuch va

TILSHUNOSLIK

vaqt kiradi. Inson egalik qiladigan ma'lumotlarning miqdori ham muhimdir. Agar tanada mavjud bo'lgan ma'lumotlar zarur bo'lgandan kamroq bo'lsa, kuchlanish holati paydo bo'ladi va kuchlanish miqdoriga qarab, odamning hissiy holati o'zgaradi. Misol uchun mashhur "Qichqiriq" asari mullifi rassom Edvard Munchning shu asarining yuzaga kelishida uni doimiy hamroxi bo'lgan "qo'rquv" hissi sababchi bo'lganligi manbaalarda yozib qoldirilgan. Rassomning ta'kidlashicha u do'stlari bilan tun qorong'usida ko'prik yoqalab ketayotgan payt rassom bir qattiq ovozdan qo'rqib ketadi. "Hissiy shok" natijasida rassom bir fursat jim, bir nuqtaga tikilganicha titroq holatda qolib ketadi. Uni ko'rgan do'stlari rassomni o'ziga keltirishga harakat qiladi. U o'ziga keladi, lekin butun umri davomida shunday "qo'rquv" hissi ta'sirida qolib ketadi hamda mashhur asari "Qichqiriq" dunyoga keladi. Asar muallifning hayoti davomida boshidan kechirgan butun qo'rquvlari tasviridir. Har qanday noan'anaviy vazifa diqqatni jamlashni, intellektual va jismoniy resurslarni safarbar qilishni talab qiladi va bu vazifani hal qilishni ta'minlaydigan organlar va tizimlar faoliyatining ortishi, kuchayishi bilan tavsiflanadi. His-tuyg'ular fiziologiyasi bugungi kunda tibbiyot xodimlari bilan bevosita hamkorlikda tahlil ostiga olingan obyektlardan biridir. Chunki hissiyotlar nafaqat inson nutqiga balki, nutqiy jarayonda uning ruhiy-fiziologik holatiga ham yaxshigan ta'sir o'tkazadi.

Bizning tadqiqotimiz markazi - hissiyotlar lingvistikasidir. Bundan tashqari, biz uch tilning lug'atini solishtirish va nutqning emotsionalligining mumkin bo'lgan etnopsixologik determinantlarini aniqlash niyatidamiz, ya'ni, ma'lum bir madaniyatga mansublik tegishli tilning emotsional lug'atining tuzilishiga ta'sir qiladimi degan savolga javob berish. Shu sababli, mos ravishda o'zbek, rus va ingliz tillarida so'zlashadigan odamlarning etnik-madaniy xususiyatlariga oid mavjud qarashlar bilan tanishish foydali bo'ladi.

Tuyg'ular - sub'ektiv psixologik holatlarning alohida sinfi bo'lib, ular bevosita tajriba shaklida insonning o'z faoliyati jarayonini, natijalarini va tashqi dunyo bilan munosabatlarni aks ettiradi. Insonning atrofidagi dunyoni baholashi ma'lum bir jamiyat tomonidan qabul qilingan qadriyatlar tizimiga asoslanadi. Quyida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'zbek madaniyati vakillarining madaniy va psixologik xususiyatlari ko'p jihatdan rus va ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda rivojlangan madaniy jamoalarning tegishli xususiyatlariga ziddir. Shuning uchun biz uchun o'zbek, rus va ingliz tillarida emotsional lug'atni solishtirish qiziq edi.

Etnopsixologik xususiyatlarning tuzilishi murakkab dinamik ko'p bosqichli tizim bo'lib, uning elementlari bir-biri bilan mantiqiy bog'liqdir. Albatta, ular orasida ma'lum bir etnik-lingvistik hamjamiyat vakillarining ko'pchiligining turmush tarzida ustunlik qiladigan qadriyat yo'nalishlari ayniqsa muhimdir. Qadriyat tizimi, qoida tariqasida, eng ongli xususiyatga ega va mafkuraviy qarashlarni o'zida mujassam etadi. Uning odamlar psixologik xususiyatlarining shakllanishiga, jumladan, dunyoni idrok etishiga ta'siri nihoyatda katta. Bu tuzilma abadiy va tarixiy voqelikning sintezidir. Bu ko'p qirrali, aniq belgilash deyarli mumkin bo'lmagan, voqelikning mavjudligi va idrokini belgilaydigan xalq g'oyalari, an'analari, e'tiqodlari (ularning dini, falsafasi, madaniyati, tilida aks ettirilgan) majmuidir. Etnik kelib chiqish turli shakllarda va turli darajalarda namoyon bo'ladi: g'oyalar, siyosat, madaniyat, kundalik ong darajasida (va hatto psevdosan'atlarda: Amerikaning eng arzon jangovar filmidan tortib, eng ibtidoiy troykalar va lo'lilar ishtirokidagi rus "musiqalarida", o'zbek xalqining o'ziga xos qadimgi marosimlarda kuylangan kuylari, laparlari, dostonlari yuksak san'at cho'qqilarida bo'lgan, garchi soddalashtirilgan, vulgarlashtirilgan, ba'zan karikaturalangan yoki singan shaklda bo'lsa ham, xuddi shu narsalar milliy determinantlar bo'lib ko'rinadi).

Asosan, milliy g'oya ongli yoki ongsiz tarzda har qanday xalq hayotini boshqaradi. Xalqning tarixiy mazmuniy mavjudligi qadriyatlar, an'analar va e'tiqodlarning keng tarqalgan organik tizimi bilan birga keladi. Bu ma'noda Amerika misolida ko'rib o'tsak bo'ladi: amerikaliklar etnik jihatdan dunyoning barcha burchaklaridan kelgan odamlarning rang-barang konglomerati bo'lishiga qaramay, yagona millatni tashkil qiladi. Biroq, O'zbekiston va Rossiyada milliy o'ziga xoslik an'anaviy ravishda etnik guruhga emas, balki madaniyatga mansublik bilan belgilanadi. Turli madaniy va etnik guruhlarga mansub shaxslar psixologiyasidagi o'xshashlik va farqli jihatlar, psixologik farqlarning ijtimoiy-madaniy, ekologik hamda biologik xususiyatlariga ko'ra shartliliigi va boshqalar bilan madaniyatlararo psixologiya yo'nalishi shug'ullanadi [4]. Bu yerda asosiy tushunchalardan biri "madaniy sindrom" bo'lib, madaniyatlarining bir guruhini boshqasidan ajratib turadigan qadriyatlar, munosabatlar, e'tiqodlar, me'yorlar va xatti-harakatlarning ma'lum bir to'plami sifatida yuzaga chiqadi. Bugungi kunga qadar bir qator "madaniy sindromlar" yoki "madaniyat

o'lchovi" parametrlari aniqlangan. Bu borada juda ko'p millatlar madaniyati o'rganilmoqda. Tadqiqotlarda ko'p e'tibor beriladiganlar qatoriga ingliz va rus madaniyati vakillarini kiritish mumkin. Manbaalarda bu xalqlarning o'ziga xos xususiyatlarini tasvirlashga katta e'tibor beriladi. Xususan, bu borada G.Xolfstedning ishlarini anchayin samarali deyish mumkin. Biz, birinchi navbatda, rus va ingliz tilida so'zlashuvchi jamoalar eng ko'p qarshilik ko'rsatadigan parametrlar ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisobladik. Ko'pgina tadqiqotchilar "individualizm - kollektivizm" oppozitsiyasini asosiy etnikmadaniy xususiyatlardan biri deb bilishadi. "Individualistik" - bu uning a'zolarining shaxsiy maqsadlari guruh maqsadlaridan kam bo'lmagan (agar ko'p bo'lmasa) muhim bo'lgan madaniyatdir. Aksincha, "kollektivistik" madaniyat, unda guruh maqsadlari individual maqsadlardan ustun bo'lishi bilan tavsiflanadi. Xolfstedning o'lchovlariga ko'ra, ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar madaniyati (Buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya) aniq individualistik tipga tegishli, bu olimning tahlillariga ko'ra rus madaniyatini kollektivistik tip deb tasniflaydi [6]. Ba'zi tadqiqotchilar rus madaniyati haqida gapirganda, ruslar sezgirlik, murosasizlik, birlik tamoyillari, befarqlik va ma'naviy qadriyatlarining moddiy qadriyatlardan ustunligi bilan ajralib turadi; Ular hatto haqiqatga chanqoqlik va azob-uqubatlarga tashnalik kabi o'ziga xos fazilatlarining mavjudligini ta'kidlaydilar. Ingliz tilida so'zlashuvchi madaniyatlarining asosi - bu o'z kuchli tomonlariga va har bir shaxs uchun eng keng imkoniyatlarga tayanadigan erkin shaxslar jamiyati deya ta'rif berishadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR.

Biz tadqiqot obyekti sifatida o'zbek xalqini ham kiritganmiz. O'zbek millati madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlarini nutqiy vaziyatdagi ifoda hodisalari deyarli tahlil ostiga olinmagan. Fikrimizga ko'ra bu boradagi tadqiqot ishi jahon hamjamiyatini befarq qoldirmaydi. Chunki o'zbek xalqining o'zgacha sharqona madaniyati, uning muloqot madaniyatiga ta'siri, o'ziga xos xususiyatlari rus va ingliz tilida muloqot qiluvchi xalqlardan qolishmagan tarzda jozibakordir. Masalan, jahon tilshunosligida bugungi kunda oltita unversal (ba'zi manbaalarda sakkizta) hissiyotlar borligi e'tirof etilsa, har bir xalqning bundan tashqari xalq sifatida shakllanishida, ko'rinishida, albatta, uning o'ziga xos hissiyotlari hamda bu hissiyotlarning nutqiy vaziyatda ifodalanishi mavjudligi xalqlarni bir-biridan ajralib turishiga sabab bo'ladi. O'zbek xalqida hech bir xalqda uchramaydigan andisha, istihola va yana boshqa hissiyotlari mavjud. Aynan mana shu hissiyotlarsiz o'zbek xalqi madaniyatini yuzaga chiqarish yoki ko'rsatish imkonsizdir.

Andisha so'ziga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha ta'rif beriladi:

Andisha - arab tilidan olingan bo'lib, fikr, mulohaza degan ma'noni anglatadi.

1. Ketini, oqibatini o'ylab yoki yuz-xotir qilib yuritilgan mulohaza. *Mis. Andishaning oti-qo'rqqoq. (Maqoldan)*

2. Umuman fikr, mulohaza. *Mis. Qandaydir andisha tutdi tilini. (A.Muxtor)*

3. Sharm-hayo, or-nomusga amal hissi. *Mis. Tog'a ko'zlarini bir nuqtaga tikkanicha o'ylab qolgan Akbaraliga ich-ichidan kuyinib qarab turardi. Bu yigit hech kimga so'z bermagan yaydoq yigitlardan edi. Endi zabun, ko'zlar andishadan yerga boqqan. (Said Ahmad "Ufq" trilogiyasi 1976-yil, G'.G'ulom nashiryoti. Akbaralining singlisi Lutfinisoning Azizxon bilan to'y kuni qochib ketishi, 30-bet)*

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turganidek, o'zbek xalqi madaniyatida andisha hissi tarixan asoslarda shakllangan va xalq negizida hamon saqlanib qolmoqda, bugungi kungacha bu xalqning eng to'laqonli tasviriy ko'rinishini belgilaydigan me'yorlardan biridir bu –andishadir. Andisha grammatik jihatdan og'zaki hamda yozma nutqda fonetik, leksik, frazeologik, paremik vositalar va paralingvistik vositalar orqali ifodalanadi. Fonetik jihatdan asosan, undosh tovushlarni takror qo'llash orqali yuzaga chiqadi (Mmmmm, hmmm). Leksik jihatdan esa, andisha so'zining o'zini qo'llash bilan, frazeologik tarafdin esa, "andishaning otini qo'rqqoq qo'ymoq", "og'zi bormadi", "tili bormadi": *Safar bo'zchi turgan o'rnidan siljimadi: – Cho'zma kekirdagingni, bo'qoq, – dedi, – qani qo'yib berchi taqsiringni, yoqalashsin-chi men bilan! Andishaning otini qo'rqqoq qo'ydingmi?! A.Qodiriy. Mehrobdan chayon. Bu haqida badiiy adabiyotlarda minglab misollar keltirish mumkin. – Sen mendan emas, mana bu norastadan andisha qil, soldat, uning ko'zidan qo'rq, – dedim. A.Muxtor. Davr mening taqdirimda. Ba'zan juda xafa bo'lib ketaman, «Bor-el!» – degim keladi-yu, tag'in ming andishaga boraman: el og'ziga elak tutib bo'lmaydi, «Ordeni ko'payib, erini tashladi», – deydi... A.Qahhor. Sinchalak. Andisha oyoq osti bo'ldi, or-u nomus – bir pull! G'.G'ulom. Yodgor.*

TILSHUNOSLIK

Ana shunda otasiga istagini aytmoqchi bo'ldi, lekin tortindi *og'zi bormadi*. Kuzdan boshlab yana eski maktabiga yubordilar. Birinchi kuniyoq, Dilshod chidayolmadi. Bu Olga Petrovnaning maktabi oldida chindan ham otxonaga o'xshardi: qorong'i, iflos, shovqin, sassiq, yana nima balolar! *M. Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha*. Masalan, tarixiy romanlarimizdan biri Primqul Qodirov ijodiga mansub "Yulduzli tunlar" asarida Bobur Mirzoning andishi "andisha" so'zini qo'llamasdan ifodanlagan nuqtalar bisyor.

Bog' ko'chadan keng dalaga chiqqanlarida Bobur sallasi qatidagi pushti rang atirgulni sekin qo'lga olib, yana bir hidlab ko'rdi. Shunda devordan mo'ralagan qiz uning ko'z oldi-da qaytadan gavalandi-yu, butun borlig'ini nafis va shirin tuyg'ularga to'ldirdi. «Shuncha qilib, istab jahonni yor topmadim!» degan Boburga balki shu qiz yor bo'lar? Nega undan bu qadar tez ayrildi? Nahotki bu qizni qayta ko'rish nasib qilmasa? Qosimbek otini Boburning otiga yaqin keltirib, past tovush bilan so'radi:

— Amirzodam, bu atirgul qaysi gulzorda o'sganini surushtirib ko'raymi?..

— Ixtiyoringiz, — dedi Bobur uyalinqirab.

— Qizning otalari Husayn Boyqaroga xesh bo'lsalar, men bu xonadon bilan albatta aloqa bog'lagaymen.

Bobur bu rejani ma'qullagan ma'noda bosh irg'adi. ("Yulduzli tunlar" 188-b)

Milliy madaniyatimizga xos "uyat" tuyg'usi, o'zidan yoshi katta insonga (hatto, u xizmatkor bo'lsa ham) andisha qilib, iymanib hissiyotlarni ochiq ayta olmaslik, albatta hurmat yuzasidan. Shuningdek, misolda paralingvistik tarzda rozilik ma'nosini anglatuvchi hissiyotni "bosh irg'ash" iborasi orqali berilishini ham kuzatish mumkin.

Ingliz va rus xalqlari madaniyati, ya'ni G'arb madaniyatida esa, bunga o'xshash hissiyotning muqobili nomi bo'lishi mumkin, lekin ifoda masalasida bunga o'xshashi deyarli uchramaydi. Har bir xalq madaniyati o'ziga xos, bir-biriga qaysidir jihatdan o'xshasa-da o'ziga xos unikal taraflari bisyor.

XULOSA

Antroposentrik nazariya aktuallashtirish boshlagandan so'ng, tilshunoslikning boshqa fanlar bilan kesishuvi chorrahasida turlicha yangi yo'nalishlar yuzaga kela boshladi. Hissiyotlar lingvistikasi lingvomadaniy jihatdan jahon tilshunoslari tomonidan ko'p marotaba tahlilga tortilgan. Tadqiqotlarda asosiy mavzulardan biri sifatida e'tibor qaratilgan jihat hissiyotlarning tildagi ifodalanishiga madaniyatning ta'siri, G'arb va Sharq madaniyatining tildagi o'ziga xosliklari qiyosiy tahlil qilingan. Biz ushbu maqolamizda Sharq madaniyati vakili bo'lgan o'zbek xalqining ham o'ziga xos nutq madaniyati, millatning nutq jarayonida qo'llaydigan o'zgacha verbal va noverbal vositalarini e'tiborga oldik. O'zbek tilida so'zlashuvchilarning boshqa ingliz va rus tilida so'zlashuvchilardan farqli hamda o'xshash jihatlari maqolani boshqa til vakillari o'qisa ham tushunishi uchun berildi. Tahlillar jarayonida har bir xalq, madaniyat vakilining umumiy va o'ziga xos hissiyotlar tili borligi aniqlandi. BU qiziq jarayon boshqa madaniyat vakillarini ham befarq qoldirmaydi degan maqsadda ilmiy hamjamiyatga taqdim etilmoqda. O'zbek xalqiga, Sharq madaniyatiga xos "andisha", "istihola" tuyg'ularining rus va ingliz tilidagi muqobillari qidirildi, lekin ayni bu tushunchalarni ochib beradigan, bu hissiyotlarni ko'rsatadigan jihat topilmaganligi sababli o'zbek madaniyatining unikal, faqat shu xalqqa tegishli tomoni sifatida e'tirof etishni joiz deb topdik.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Косицкий Г.И. Физиология человека - М., 1985-544 с
2. Жо Годфруа. Что такое психология: В 2 т. Пер. с фр. / Под ред. Г. Г. Аракепова. — 2-е изд., стер. — М.: Мир, 1999. — 491 с. — ISBN 5-03-001901-4 (рус.).
3. Jo Godefroid, Emmanuel Stip. Psychologie et santé mentale (фр.). — Laval, Québec: Éditions Études vivante, 1993. — 167 p.
4. Грекова Т.Н. Кожно-гальванический рефлекс как показатель изменений психического состояния. *Физиология человека*, 1975, т. 1, № 6.
5. Ubaydullayeva, Z. (2023, December). NOVERBAL HISSIYOT IFODALOVCHI VOSITALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI. In Fergana state university conference (pp. 154-154).
6. Hofstede, Geert (December 1986). "Cultural differences in teaching and learning". *International Journal of Intercultural Relations*. 10 (3). International Academy for Intercultural Research: 301–320